

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA- QURILISH INSTUTUTI

“Arxitektura nazariyasi va tarixi” kafedrası

ARXITEKTURAVIY KOMPOZITSIYA VA LOYIHALASH
ASOSLARI

fanidan I-II semestr mustaqil ishlarini bajarish bo'yicha
USLUBIY KO'RSATMA

5340100-“ Arxitektura(turlari bo'yicha)”
va 5341000- “Qishloq hududlarini arxitektura-
loyihaviy tashkil etish” ixtisosligi bo'yicha ta'lim
olayotgan talabalar uchun



SAMARQAND 2019

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

САМАРҚАНД ДАВЛАТ АРХИТЕКТУРА-ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ

“Архитектура назарияси ва тарихи” кафедраси

Институт илмий-услубий
кенгашида муҳокама
қилинган ва нашрга рухсат
берилган.

Рўйхатга олинди: _____

Протокол № _____

« ____ » _____ 2019йил

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Институт илмий-услубий
кенгашининг раиси
т.ф.н.,доцент А.Рахимов

« ____ » _____ 2019йил

**АРХИТЕКТУРАВИЙ КОМПОЗИЦИЯ ЛОЙИХАЛАШ ВА
АСОСЛАРИ” ФАНИДАН**

Мустақил ишларни бажариш учун

УСЛУБИЙ КЎРСАТМА

5340100 -“ Архитектура(турлари бўйича)” ва 5341000-
“Қишлоқ ҳудудларини архитектура-лойиҳавий ташкил
этиш” ихтисослиги бўйича таълим олаётган талабалар учун

САМАРҚАНД -2019

Услужбий кўрсатмада Архитектуравий композиция ва лойиҳалаш асослари фанининг бўйича бажариладиган муваққил ишлари мавзулари ва график услублари босқичлари ҳақида умумий тушунчалар, муваққил ишлар мавзулари бўйича умумий тушунчалар берилган. Фан бўйича талабалар томонидан бажарилиши керак бўлган топшириқларнинг баҳолаш мезонлари босқичма-босқич курсатилиб ўтилган.

Кўрсатма олий ўқув юртида “Архитектура”, Қишлоқ ҳудудларини архитектура-лойиҳавий ташкил этиш” таълим йўналишлари бўйича таълим олаётган талабалар, мутахассислар ва шу соҳага қизиқувчилар учун мўлжалланган.

Тузувчи: **Маҳматқулов Илҳом Турдимуродович** – “Архитектура назарияси ва тарихи” кафедра катта ўқитувчиси
У.З.Зубайдуллаев «Архитектура назарияси ва тарихи» кафедраси катта ўқитувчиси
Эшмуродов Ориф Абилқосимович -“Архитектура назарияси ва тарихи” кафедраси ўқитувчиси

Тақризчилар:

А.С.Уралов “Архитектуравий лойиҳалаш” кафедраси профессори

Услужбий кўрсатма “Архитектура назарияси ва тарихи” кафедраси (Баённома № “___”_____2019) ва СамДАҚИ Архитектура факултетининг илмий-услужбий кенгашида (Баённома № “___”_____2019) кўриб чиқилди ва маъқулланди.

Чиқиш белгилари: СамДАҚИ. А3 Формат. Буюртма №30. Адади 50.
Ҳажми б.т.

Kirish

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yil 16 avgustdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi 343-son qaroriga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 21 fevraldagi 34-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi tug'risidagi Nizomga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, bunda talabalarning "Arxitekturaviy loyihalash asoslari" fanidan mustaqil ishlarini tashkil yetish, nazorat qilish va baholash tartiblari Keltirilgan.

Talabaning mustaqil ishi o'quv Rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining tarkibiy qismi bo'lib, u uslubiy va axborot Resurslari jihatidan ta'minlanadi hamda bajarilishi Reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Ma'lumki bozor iqtisodiyotiga o'tish, boshqarishning eski usullaridan voz Kechish, arxitektura mutaxassislaridan ruy Berayotgan jarayonlarni chukur tahlil qila olish va ularga to'g'ri tola bilishni talab kiladi.

Arxitektura yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida arxitekturaviy loyihalash fanini o'rganishdan maqsad talabalarni nazariy va amaliy fikr yuritish qobiliyatini oshirish, ilmiy adabiyotlarni mustaqil o'rganishga odatlantirish, mutaxassislik bo'yicha umumiy bilim saviyasini oshirish, loyihalash jarayonlarni ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Arxitektura qurilish va boshqa sohalardagi loyihalash jarayonlarni o'rganish va mutaxassis jihatdan tahlil qila olish uchun bo'lajak arxitektura yetarli darajada mutaxassislik bilimga ega bo'lishi kerak. ArxiTektura yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan "Arxitekturaviy loyihalash" fani qo'yidagi asosiy fundamental bilimlarni o'z ichiga oladi:

- Mutaxassislik fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning tutgan o'rni va ahamiyati
- Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonining ilmiy asoslari
- Mutaxassislik fanlarini o'qish jarayonida adabiyotlar ustida ishlash
- Mutaxassislik fanlarni o'qish jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlari

"Arxitekturaviy loyihalash asoslari" fani bozor iqtisodiyoti sharoitida malakali mutaxassislarni tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi, hozirgi zamon arxiTekturasiga oid ilmiy va uslubiy adabiyotlarni o'rganib, kasb malakasini oshirishga qo'l keladi.

Umumiy o'quv soatlari Chegaralangan bo'lganligi uchun dasturda ko'pgina mavzular mustaqil o'rganish uchun ajratilgan. Mustaqil bilim olish imkoniyati ham Cheklangan, chunki avvalo "Arxitekturaviy loyihalash asoslari" fanidan o'zBek tilida darslik va ko'llanmalar kam, ayniqsa o'quv rejalarda belgilangan «mustaqil ta'lim» uchun uslubiy qo'llanmalarning deyarli yo'qligidir.

Bu esa, o'z navbatida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi» va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» qonunlari, shuningdek

harakatdagi Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib o'qituvchi rahbarligida bajariladigan ma'ruza, seminar darslari va «Mustaqil ish» sifatini kutarishni talab etadi. Shuningdek, ajratilgan soatlardan unumli foydalanish, talabalarni o'z ustida ishlashga o'rgatish va bu muhim talab - davr talabi ekanligini ular ongiga singdirishdan iboratdir.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun talablaridan kelib chiqib yangi davlat ta'lim standartlari joriy etilgandan buyon o'quv rejasidagi «Mustaqil ish» uchun ajratilgan soatlar "Arxitektura nazariyasi va tarixi" kafedrasida turli xil usullarda utib kelinmokda. Bu esa o'z navbatida, ajratilgan soatlardan talabalar samarali foydalanmoqda deb atashga asos yo'q. Shu sababli bizning fikrimizcha «Mustaqil ish» darslarini va unga ajratilgan soatlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan uslubiy ko'llanmalarni yaratish va mavjudlarini yanada takomillashtirish zarur. Ularda mazkur darslarga tayyorgarlik kurish va o'tkazishda talabaning manfaati, uni rag'batlantirish yo'llari o'z yechimini topgan bo'lishi va buni talaba shaxsan juda yaxshi his qilmog'i lozim.

Buning uchun o'z navbatida professor - o'qituvchilar o'ta tajribali, bilimli, talabalar qalbiga yo'l topa olishdek mahoratli bo'lishi talab etiladi. Shu munosabat bilan - "o'qituvchining bosh vazifasi - deb yozadi I.Karimov - o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish kunikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda tajribamizda unga rioya qilmaymiz".

Arxitekturaviy loyihalash asoslari o'quv rejasida talabalar uchun 65 soat mustaqil ishga ajratilgan.

Avvalo shunday savol tug'iladi:

- talabalarining mustaqil ishi deganda nimani tushunish kerak?
- talabalarining mustaqil ishi qanday kurinishlarda bo'ladi va qanday shakllarda amalga oshiriladi?

Bizningcha talaba bajaradigan mustaqil ishlarning asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan samarali foydalanish;
- berilgan topshiriqning rasional yechimini belgilash;
- malumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Talabaning vaqt byudjeti auditoriyada va auditoriyadan tashqarida bilim olishga sarf qilgan vaqtdan tashkil topadi. Auditoriyadagi vaqtda talaba o'qituvchining ma'ruzasini eshitadi, amaliy mashg'ulot darslarida bevosita muloqotda bo'ladi, misol va masalalar yechadi. Xullas, auditoriyadan tashqaridagi vaqtda talaba darsga

tayyorlanadi. Bizning fikrimizcha talabanning auditoriyadan tashqaridagi vaqtida bajargan ishi mustaqil ish deb tushunilishi kerak. Ammo amaliyotda talabalarning auditoriyadan tashqarida bajaradigan ishlari: amaliy mashg'ulot darslariga tayyorlanish, Referat, kurs ishi, ilmiy ma'ruza tayyorlashi kabi ishlar mustaqil ish sifatida tayyorlansa ham, Lekin ular mustaqil ish tarkibiga kiritilmaydi. Masalani bunday quyishimizning sababi shundan iboratki, talabanning o'qish vaqti haftada 54 soatni tashkil etib, har kuni 6 soat auditoriyada 3 soat esa auditoriyadan tashqarida o'qishdir.

Agar biz talabanning haftalik vaqtiga byudjetiga yuqorida kursatilgan 13 soatlik mustaqil ishni qo'shadigan bo'lsak (yana o'quv Rejadagi boshqa fanlarning mustaqil ishlariga ajratilgan soatlar ham qo'shilsa), unda talabanning haftalik o'qish vaqti anchaga oshadi. Masalaning muammoli tomoniga ko'p e'tiborni qaratmasdan, uning amaliy hal qilinishi nuqtai nazaridan yondashib o'quv Rejasida kursatilgan 13 soatli talabalarning mustaqil ishining tashkil etishiga fikr bildirish ahamiyatga ega.

Shunday qilib institut o'quv rejasida "Arxitekturaviy loyihalash asoslari" faniga ajratilgan 65 soat mustaqil ishga amaliy mashg'ulot darslariga tayyorlanishi kirmaydi. Ushbu qo'llanmada bundan keyingi so'z ana shu 65 soatli talabalarining mustaqil ishi to'g'risida ketadi.

1. Mustaqil ishga qo'yiladigan talablar

Tajriba kursatmoqdaki talabalarning mustaqil ishini tashkil etganda qo'yidagi masalalarga e'tibor berilishi kerak:

Birinchidan, mustaqil ishning mavzularini aniqlanganda "Arxitekturaviy loyihalash asoslari" fanining har bir mavzusi bo'yicha darsda o'tilmaydigan qismi aniqlanib, muammoni hal qilishga qaratilgan adabiyotni olib uni konspekt, qilish va uning asosiy mazmunini so'zlab berish, yoki konspekt qilish bilan chegaralanib qolishi, yoxud uni mustaqil o'qib, uning mazmunini gapirib berish, shuningdek ushbu qo'llanmada keltirilgan misol-masalalarni yechish shakllarida tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, mustaqil ishni tashkil qilganda albatta, talabalarning bu ishga sarflanadigan vaqtini hisobga olish zarur. Mustaqil ishning hajmi shunday aniqlanishi kerakki, talaba bu ishni real bajara oladigan bo'lishi kerak. Agar talaba biron bir adabiyotni konspekt qilishi kerak bo'lsa, unda bir betni o'qib uni konspekt qilishi uchun 2025 minut sarflaydi. Agar qandaydir mavzu bo'yicha mustaqil ishga 3 soat ajratiladigan bo'lsa va bu ish konspekt qilish uchun beriladigan adabiyotning hajmi 9 betdan oshmasligi kerak.

Agar adabiyotni o'qib, o'qituvchiga og'zaki javob beradigan bo'lsa unda talabaga mustaqil ish sifatida 15 betli maTerialni tavsiya etish mumkin. Bir betni o'qish, uni mutalo qilish va mazmunini aytib berish uchun 10-15 minut vaqt yetarli.

Uchinchidan, talabalarga mustaqil ishni vazifa sifatida topshirganda o'qituvchi har bir mavzu bo'yicha «qanday maqsad qo'yiladi?» degan savol qo'yib bu savolga javob berishi kerak. Aniqrog'i har bir mavzuning oldiga qo'yilgan maqsadni aniq belgilashi zarur.

Turtinchidan, talabalarning mustaqil ishi ma'lum bir tamoyillar asosida tashkil etilishi kerak. Mustaqil ish har bir talaba tomonidan mustaqil bajarilib, uning sifati o'qituvchi tomonidan tekshirilib baholar qo'yilishi kerak.

Beshinchidan, talabalarning mustaqil ishi rejasi kafedra majlisida tasdiqlanib rejadagi talabalarning mustaqil ishi haftalarga bo'linib uning bajarilishi kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinishini uning natijalari kafedra majlisida muhokama qilib borishi kerak.

2. Talabalar mustaqil ishining shakllari

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda qo'yidagi shakllardan foydalanadi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik kurish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik kurish;
- xisob-grafik ishlarini bajarish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotda mavjud muammolarning yechimini topish (keys-stadi);
- maket, model va namunalar yaratish;
- ilmiy maqola, anjumanmanga ma'ruza tezislarni tayyorlash.

O'qitiladigan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanishi mumkin.

O'quv fanlari bo'yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlar, variantlar ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy- uslubiy kengashida tasdiqlanadi.

Talaba uchun muayyan fan bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedra professori (yoki yetakchi dosent) tomonidan o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi ukituvchi bilan birgalikda tuziladi xamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talabaga berilgan mustaqil ishni bajarish bo'yicha dastlabki kursatma va tavsiyalar qayd etiladi.

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbai sifatida darslik va o'quv kullannmalar, metodik qo'llanmalar va kursatmalar, ma'lumotlar tuplami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar tavsiya etiladi. Internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

Kafedra mudiri va tegishli fakultet dekani taqdimnomasi asosida institut rektorati talabalarga mustaqil ishlarini bajarish uchun zaruriy axborot manba va vositalarni belgilaydi, talabalarga turli kutubxonalar, muzeylar, tarmoq muassalari va korxonalaridan mustaqil ish uchun zaruriy ma'lumotlar tuplash yuzasidan

so'rovnoma xatlarni rasmiylashtirib beradi.

Institut rektorati tomonidan talabalarga mustaqil ishlarini o'z vaqtida bajarish uchun kompyuter texnikasi va internet tarmog'idan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi.

Yuqorida aytilgandek, talabalar mustaqil ishi ishchi dasturida kursatilganidek yozma yoki og'zaki javoblari shakllarida amalga oshiriladi.

«Talabalar mustaqil ishi» jumlasini kursatib turibdiki bu ishni talabalar ayrim mavzulari bo'yicha u yoki bu masalalarni mustaqil o'rganib, bajaradi u o'qituvchi tomonidan baholanadi va bu ish oldindan rejalashtirilgan grafik asosida amalga oshiriladi. Talabalarning mustaqil ish shakli yozma konspekt shaklida yoki Belgilangan masalaga adabiyotlarni mustaqil o'qib tayyorlanish shakllarida tashkil etiladi. Qo'yida talabalarning mustaqil ishining qaysi mavzular va shakllari bo'yicha bajarilishi keltiriladi.

3. Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish

Institutda talabaning haftalik mustaqil ishlarining umumiy hajmi bakalavriyatning kunduzgi bo'limida 22 soatni va magistratura mutaxassisliklarida 18 soatni tashkil etadi.

O'quv semestri yakunida talabaning mustaqil ishi bo'yicha tuplagan Reyting ballari har bir fan bo'yicha gurux reyting kaydnomasida JB, OB, YaB qatorida MB shaklida qayd etiladi. Umumiy ball hisoblanib, mustaqil ish uchun ajratilgan soatlar hajmida aniqlanadi va talabaning reyting daftarchasida hamda o'qish yakunida bitiruvchiga taqdim etiladigan diplom ilovasida qayd etiladi.

Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedrada tuziladigan va fakultet dekani tomonidan tasdiklanidigan mustaqil ish jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi bo'yicha bajariladigan soatlar gurux jurnalida qayd qilib boriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi o'quv rejada muayyan fanga ajratilgan soatga mos reyting ballari bilan baholanadi va natijasi fan bo'yicha talabaning umumiy reytingi kiritiladi.

Talabaning reyting kursatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo'yicha, an'anaviy gurux reyting oynasida va (yoki) fakultetning maxsus elektron tarmog'ida yoritib boriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari tegishli kafedralar tomonidan belgilanadi va fakultet Ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestri) boshlanishi oldidan metodik materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Mustaqil ish bo'yicha belgilangan maksimal reyting balining 55%dan kam ball tuplagan talaba fan bo'yicha yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

Fanlar kesimida talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda talabalar guruxlari, kafedra yig'ilishlari va fakultet ilmiy

kengashlarida muhokama etib boriladi.

Institutda yuqori darajada baholangan talabalarning mustaqil ishlari ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantiriladi.

Ushbu uslubiy kursatma "Arxitekturaviy loyihalash asoslari" fani bo'yicha ishlab chiqilgan ishchi o'quv dasturiga mos bo'lib, uning mazmuni ma'ruza utuvchi professor-o'qituvchi tomonidan birinchi darsda talabalarga tushuntiriladi. (mustaqil ishning ahamiyati, uning bajarilishi tartibi, baholash mezonlari va x).

Ma'ruza va amaliy mashg'ulot darsini olib boruvchi o'qituvchi talabalarga har darsda kursatmada kursatilgan mavzu bo'yicha mustaqil ishning bajarish muddatini belgilab berishi kerak. Shu bilan bir qatorda amaliy mashg'ulot darsi olib boruvchi o'qituvchi talabalarning mustaqil ishni bajarishi uchun kerak bo'lgan adabiyotlar bilan ta'minlanganligini nazorat qilib borishi lozim. Agarda talabalar kerakli bo'lgan adabiyotlar bilan ta'minlanmagan bo'lsa, unda adabiyotlar bilan ta'minlash chora tadbirini kurishi kerak. Talabalar tomonidan mustaqil ishning qanday darajada bajarayotganligiga amaliy mashg'ulot darsi olib boradigan o'qituvchi mas'ul hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchining qo'lida (gurux seminar jurnalida) har bir talabaning mustaqil ishni qanday bajarayotganligi xaqida talaba mustaqil ishni o'z vaqtida topshirmagan (bajarmagan) bo'lsa navbatdagi mustaqil ishni bajarishiga ruxsat bermaydi. Xulosa, har bir talaba o'quv-ishchi rejada kursatilgan mustaqil ishni bajarishi majburiy.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda Dor, Ion, Korinf orderlarini jadval asosida qurib, chizadilar, arxitekturaviy shriftlarni yozib, A-3 formatda bajaradilar, mavjud kichik shakllarni (obodonlashtirish unsurlarini) o'lchab, A-3 formatda bajaradilar, kompozisiya mavzulari bo'yicha eskiz va maketlarini yasaydilar, grafik usulda rangli va oq-qorada anturajlar chizadi. Bunda quyidagi o'kuv-uslubiy va boshqa shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- uslubiy ko'rsatmalardan;
- qo'shimcha adabiyot va jurnallardan;
- ko'rgazmali materiallardan;
- internet tarmoqlaridan.

Usti yopiq va ochiq muhitli kichik me'moriy shakl (savdo rastasi) loyihasi bajariladi. Eskiz qilinadi, g'oya ustida ishlanadi, loyiha masshtabga solinadi, chizmalar qalamda chiziladi, bo'yaladi, kerakli yozuvlari yozilib loyiha tugatiladi.

MUSTAQIL TA'LIM

1-semestr		
1	Dor, Ion va Korinf orderlarini jadval asosida mustaqil qurish va chizish	6soat
2	Dor, Ion va Korinf orderlarini jadval asosida mustaqil qurish va chizish	8 soat
3	Dor, Ion va Korinf orderlarini jadval asosida mustaqil qurish va chizish	8 soat
4	Arxitektura shriftini 3 xil variantini yozish	8 soat
5	Mavjud kichik shakllarni (obodonlashtirish unsurlarini) o'rganish va o'lchash	26 soat
Jami:		56soat
2-semestr		
1	Frontal kompozisiya maketini yasash	10
2	Xajmiy fazoviy kompozisiya maketini yasash	10
3	Ichki fazoviy muhitli kompozisiya maketini yasash	10
9	Grafik usulda anturaj chizish (oq-qora, albom A3)	20
10	Rangli va grafik usulda staffaj chizish (rangli, albom A3)	18
Jami:		68 soat
Umumiy 1-2-semestr bo'yicha		124 soat

**"Arxitekturaviykompozisiya va loyihalash asoslari" fanidan
talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari**

I – semestr

I semester davomida 4 ta vazifa bajariladi. Vazifalar semestr davomida 2 ta joriy va yakuniy nazorat o'tkazish orqali baholanadi.

I vazifa: Me'moriy o'lchov vazifasini bajarish, arxitekturaviy shakllari bilan tanishish, tarh, tarz, qirqim chizmalari, planshetga to'g'ri joylashtirish, o'lchov yozuvlarini to'g'ri qo'yish, shrifflar bilan yozish, chizmalarni ustidan tush bilan yurgizish. Uni baholashga- 5ball ajratilgan.

Baho	Baholash mezonlari
5 ball (a'lo)	<ul style="list-style-type: none"> • Arxitekturaviy shakllar haqida yaxshi material to'plangan – 5 ball; • Arxitekturaviy shakllarni qog'ozda juda yaxshi qurilgan – 5 ball; • Arxitekturaviy shakllari klauzura juda yaxshi bajarilgan – 5 ball; • Arxitekturaviy shakllarni planshetda juda yaxshi kompozisiya yasalgan – 5 ball; • Arxitekturaviy shakllarni suv-bo'yoqda juda yaxshi bo'yalgan – 5 ball. <p>25/5=5</p>
4 ball (yaxshi)	<ul style="list-style-type: none"> • Jami to'plangan ball o'rtacha 20 bo'lgan holda 20/5=4
3 ball (qoniqarli)	<ul style="list-style-type: none"> • Jami to'plangan ball o'rtacha 15 bo'lgan holda 15/5= 3
2 ball (qoniqarsiz)	<ul style="list-style-type: none"> • Jami to'plangan ball o'rtacha 10 bo'lgan holda 10/5= 2

II vazifa: Massadagi Rim orderlarini bajarish. "Toskan" orderini modul tizimida topish. Uni baholashga-5 ball ajratilgan.

Baho	Baholash mezonlari
5 ball(a'lo)	<ul style="list-style-type: none"> • Rim orderlari chizmalari A3 formatli qog'ozda to'g'ri chizish – 5 ball; • Rim orderlari chizmalari kichik detal bezaklarini qog'ozda qog'ozda to'g'ri joylashtirish – 5 ball; • Rim orderlari chizmalari katta detal bezaklarini to'g'ri bo'yash – 5 ball; • Rim orderlari chizmalari qalamda to'g'ri chizib tugatish – 5 ball; • Rim orderlari chizmalari soyalarini to'g'ri aks ettirish– 5 ball;

	$25/5=5$
4 ball(yaxshi)	Jami to'plangan ball o'rtacha 20 bo'lgan holda $20/5=4$
3 ball(qoniqarli)	Jami to'plangan ball o'rtacha 15 bo'lgan holda $15/5=3$
2ball(qoniqarsiz)	Jami to'plangan ball o'rtacha 10 bo'lgan holda $10/5=2$

Mustaqil ishga -5 **ball** ajratilgan. Mustaqil ishlar A3formatli qog'ozda bajariladi.

№	Baho	Baholash mezon
1	5 ball (a'lo)	<ul style="list-style-type: none"> • Dor orderini jadval asosida mustaqil qurish va chizish – 5 ball; • Ion orderini jadval asosida mustaqil qurish va chizish – 5 ball; • Korinf orderini jadval asosida mustaqil qurish va chizish – 5 ball; • Katta arxitektura shriftini yozish – 5 ball; • Kichik arxitektura shriftini va sonlarni yozish – 5 ball; $25/5=5$
2	4 ball (yaxshi)	Jami to'plangan ball o'rtacha 20 bo'lgan holda $20/5=4$
3	3 ball (qoniqarli)	Jami to'plangan ball o'rtacha 15 bo'lgan holda $15/5=3$
4	2 ball (qoniqarsiz)	Jami to'plangan ball o'rtacha 10 bo'lgan holda $10/5=2$

Yuqoridagi ko'rsatilgan 2 ta vazifa va mustaqil ishning natijasi **OB1** nazoratiga kiritilgan.

$$\mathbf{OB1 = 5\ ball(1-vaz.) + 5\ ball(2-vaz) + 5\ ball\ (mus.\ ish) = 15/3 = 5\ ball}$$

III vazifa: Bo'yov mashqini bajarish. Vazifa ikki hafta davomida bajariladi. Uni baholashga-5 ball ajratilgan. Baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

№	Baho	Baholash mezonlari
1	5 ball(a'lo)	<p>Suv-bo'yoq mashqining barcha unsurlarini qog'ozda to'g'ri joylashtirish – 5 ball;</p> <p>Suv-bo'yoq mashqining barcha unsurlarini qalamda to'g'ri chizish – 5 ball;</p> <p>To'rtburchaklarni suv-bo'yoqda to'g'ri bo'yash, ochdan to'qqa nozik tusda o'tish - 5 ball;</p> <p>Me'moriy bo'lak shakllarining nur-soyalarda to'g'ri aks ettirilishi – 5 ball;</p> <p>Me'moriy bo'lak shakllari soylarining suv-bo'yoq texnikasida to'g'ri aks ettirilishi – 5 ball.</p> <p style="text-align: center;">$25/5=5$</p>
2	4 ball(yaxshi)	Jami to'plangan ball o'rtacha 20 bo'lgan holda $20/5=4$
3	3ball(qoniqarli)	Jami to'plangan ball o'rtacha 15 bo'lgan holda $15/5= 3$
4	2ball(qoniqarsiz)	Jami to'plangan ball o'rtacha 10 bo'lgan holda $10/5= 2$

IV vazifa:Arxitekturaviy lavha tasvirini bajarish. Vazifa to'rt hafta davomida bajariladi. Uni baholashga-5 ball ajratilgan bo'lib, semestrda fanga ajratilgan soatga proporsional ravishda olingan.

№	Baho	Baholash mezonlari
1	5 ball(a'lo)	<ul style="list-style-type: none"> ○ Me'moriy lavha chizmalari unsurlari qog'ozda juda yaxshi joylashtirilgan – 5 ball; ○ Me'moriy lavha chizmalari qalamda juda yaxshi chizilgan – 5 ball; ○ Me'moriy lavha unsurlari shakllarining nur-soyalarda to'g'ri aks ettirilishi – 5 ball; ● Me'moriy lavha unsurlari suv-bo'yoqda juda yaxshi bo'yalgan – 5 ball; ○ Me'moriy lavha soylari suv-bo'yoqda juda yaxshi aks ettirilgan – 5 ball; <p style="text-align: center;">$25/5=5$</p>
2	4 ball(yaxshi))	Jami to'plangan ball o'rtacha 20 bo'lgan holda $20/5=4$
3	3ball(qoniqarli)	Jami to'plangan ball o'rtacha 15 bo'lgan holda $15/5= 3$
4	2ball(qoniqarsiz)	Jami to'plangan ball o'rtacha 10 bo'lgan holda $10/5= 2$

Mustaqil ishda mavjud kichik shakllarni (obodonlashtirish unsurlarini) o'rganish, o'lchash va kroklar A3 formatda bajariladi, Unga-5 **ball** ajratilgan. Mustaqil ishlar A3formatli qog'ozda bajariladi.

№	Baho	Baholash mezon
1	5 ball(a'lo)	<ul style="list-style-type: none"> • Obodonlashtirish unsurlarini o'lchash va kroklar tayyorlash – 5 ball; • Obodonlashtirish unsurlarini qalamda chizish – 5 ball; • Obodonlashtirish unsurlarini qog'ozga joylashtirish – 5 ball; • Obodonlashtirish unsurlarini rangda bajarish joylashtirish – 5 ball; • Obodonlashtirish unsurlarining yozuvlari va o'lchamlarini qo'yish – 5 ball; $25/5=5$
2	4 ball(yaxshi)	Jami to'plangan ball o'rtacha 20 bo'lgan holda $20/5=4$
3	3 ball(qoniqarli)	Jami to'plangan ball o'rtacha 15 bo'lgan holda $15/5=3$
4	2 ball(qoniqarsiz)	Jami to'plangan ball o'rtacha 10 bo'lgan holda $10/5=2$

Yuqoridagi ko'rsatilgan 3-4- vazifa va mustaqil ishning natijasi OB2 nazoratiga kiritilgan.

$$\text{OB2} = 5 \text{ ball(3-vaz.)} + 5 \text{ ball(4-vaz)} + 5 \text{ ball (mus. ish)} = 15/3 = 5 \text{ ball}$$

Oraliq nazoratning o'rtachasi quyidagicha hisoblanadi.

$$\sum \text{oraliq.o'rt.} = 5(\text{OB1})+5(\text{OB2}) = 10/2=5$$

Talaba oraliq nazoratidan o'rtacha kami bilan 3 ballni to'plagan holda YaN nazoratini topshirishga ruxsat beriladi. Yakuniy nazorat- 5 ballni tashkil etadi.

Yakuniy nazorat 2 bosqichdan iborat; avval talabalar me'moriy orderlarni quradilar, unga 5 ball ajratilgan.

№	Baho	Baholash mezon
1	5 ball(a'lo)	<ul style="list-style-type: none"> • Rim orderlari chizmalari A3 formatli qog'ozda to'g'ri chizish – 5 ball; • Rim orderlari chizmalari kichik detal bezaklarini qog'ozda qog'ozda to'g'ri joylashtirish – 5 ball; • Rim orderlari chizmalari katta detal bezaklarini to'g'ri bo'yash – 5 ball; • Rim orderlari chizmalari qalamda to'g'ri chizib

		tugatish – 5 ball; <ul style="list-style-type: none"> Rim orderlari chizmalari soyalarini to'g'ri aks ettirish– 5 ball; $25/5=5$
2	4 ball(yaxshi)	Jami to'plangan ball o'rtacha 20 bo'lgan holda $20/5=4$
3	3 ball(qoniqarli)	Jami to'plangan ball o'rtacha 15 bo'lgan holda $15/5=3$
4	2ball(qoniqarsiz)	Jami to'plangan ball o'rtacha 10 bo'lgan holda $10/5=2$

Bundan tashqari yakuniy nazoratda talabalarning semestr davomida olgan bilimlari yozma savol-javob o'tkazish orqali ham baholanadi va uni baholashga 5 ball ajratilgan.

Savolga berilgan javobning baholanishi	Baholash mezonlari
5 ball (a'lo)	Savolga berilgan javob aniq va to'g'ri. Har bir fikr misollar, mustaqil kuzatishlar bilan isbotlangan. Kurs bo'yicha asosiy tushunchalar mustahkam o'zlashtirilgan.
4 ball (yaxshi)	Savolga to'g'ri javob berilgan, misollar keltirilgan, lekin mustaqil fikr yuritilmagan. Kurs bo'yicha asosiy tushunchalar mustahkam o'zlashtirilgan.
3 ball (qoniqarli)	Savolga javob to'liq berilmagan, faqat darslar jarayonida keltirilgan misollar yozilgan, savol yuzasidan mustaqil fikr yuritilmagan. Kurs bo'yicha asosiy tushunchalar o'rta darajada o'zlashtirilgan.
2 ball (qoniqarsiz)	Savolga to'g'ri javob berilmagan, misollar keltirilmagan, mustaqil fikr yuritilmagan. Kurs bo'yicha asosiy tushunchalar mustahkam o'zlashtirilmagan.
1ball (qoniqarsiz)	Savolga umuman javob berilmagan, misollar keltirilmagan, mustaqil fikr yuritilmagan. Kurs bo'yicha asosiy tushunchalar mustahkam o'zlashtirilmagan.

Yakuniy nazoratning 2 bosqichida to'plangan jami ballar quyidagicha hisoblanadi; $5(\text{amal.})+5(\text{nazar.})=10/2=5$

Jami semestr bo'yicha oraliq hamda yakuniy nazoratlar yig'indisi-10 ball 2 ga bo'linib talabaning to'plagan o'rtacha bali topiladi.

$$5(\text{OB})+ 5(\text{YaB})=10/2= 5 \text{ ball}$$

2- semestr

V vazifa: Kompozitsiya vazifalari bajariladi. Unga 5 ball ajratilgan

Baho	Baholash mezonlari
5 ball (a'lo)	<p>Tekislikdagi kompozitsiya. Tekislik ta'rif. Vizual maydon. Tasvir va fon. Nuqta, chiziq, turtburchak, tekislik, yuza. Ularniig hossalari va o'zaro biriktirilishi. «Nuqtali, chizikli va to'g'ri to'rtburchaklardan iborat» oq-qora va rangli kompozitsiyalarni bajarish -5 ball</p>
	<p>Yuzadagi kompozitsiya. Yuzaning tekislikdagi farqi. "Bir yuzadagi relyefli kompozitsiya". "Bir necha relyefli yuzaviy kompozitsiya" mavzularidagi klauzuralarni bajarish-5 ball</p>
	<p>Masshtab va nisbat. Masshtab va masshtablik, o'lchagich, gaz, gazcho'p, modul tushunchalari. Uyg'unlik (garmoniya), nisbat (proporsiya), oltin nisbat tushunchalari-5 ball</p>
	<p>Kontrast va nyuans, ayniyat. Kontrast tushunchasi, nyuans tushunchasi, chizikli, rangli va hajmiy kontrast va nyuanslar, ayniyatga misollar. "Ayniyat munosabatida bo'lgan unsurlardan iborat kompozitsiya", «Kontrast munosabatida bo'lgan unsurlardan iborat kompozitsiya», «Nyuan munosabatida bo'lgan unsurlardan iborat kompozitsiya», «Hajmiy kontrast», mavzularida klauzuralarni bajarish va yasash-5 ball</p>
	<p>Simmetriya, assimetriya. Simmetriya turlari, aksiy simmetriya, o'qli simmetriya, simmetriya qirrasini, ko'chma simmetriya, shakllarni uyg'unlashtirish vositalari; disimmetriya, assimetriya tushunchalari va misollari. "Aksiy simmetriyalik kompozitsiya", "O'qli simmetriyalik kompozitsiya", "Fazoviy simmetriyalik kompozitsiya" va "Assimetriyalik kompozitsiya" mavzularidagi klauzuralarni bajarish. -5 ball</p>
	<p>Ranglar. Quyosh nurining murakkabligi, spektor (kamalak), nurining aks etishi, axromatik va xromatik ranglar. Asosiy va murakkab ranglar, "Yaqin turdosh nyuan ranglar uyg'unligi", «Kontrast rangli uyg'unlik» mavzularidagi xamda «Xromatik uyg'unlik» va «Axromatik uyg'unlik» mavzularidagi kompozitsiyalarga klauzuralarni bajarish. -5 ball</p>
	<p>Kompozitsiya turlari. Frontallikni ifodalash usullari, hajmiylikni ifodalash usullari, fazoviylikni ifodalash usullari. «Kompozitsiya asosiy turlarining o'zaro bog'liqligi», «Frontallikni ifoda etish», «Hajmiylikni ifoda etish», «Fazoviylikni ifoda etish» mavzularidagi klauzuralarni bajarish-maketlar yasash. -5 ball</p>

	<p>Ochiq fazoviy muhitni uyushtirish. Fazoviy muhitlarni tashkil qilishdagi chegaralovchi unsurlarning ahamiyati, ochiq muhitni tashkil qiluvchi unsurlar, sterjenlarning konstruksiyaga bog'lanishdagi hususiyatlari, "Sterjenli konstruktiv fazoviy kompozisiya", "Sterjenli, yuzali va hajmiy unsurlardan iborat konstruktiv fazoviy kompozisiya" mavzularidagi klauzuralarni bajarish . -5 ball</p>
	<p>Hajmiy tizimni shakllantirish. Hajmiy tizimni tashkil qiluvchi unsurlarning shaklan xilma xilligi, «To'g'ri burchakli unsurlari konstruktiv jihatdan bog'langan hajmiy kompozisiya» mavzusidagi klauzuralarni bajarish -maketlar yasash. -5 ball</p>
	<p>Hajmiy tizimni shakllantirish. «O'tkir burchakli unsurlari konstruktiv jihatdan bog'langan hajmiy kompozisiya», «Egri sirtli unsurlari konstruktiv jihatdan bog'langan hajmiy kompozisiya» mavzularidagi klauzuralarni bajarish –maketlar yasash. -5 ball</p>
	<p>Chizma shaklidagi tahlil. Kompozision tahlilning maqsad va vazifasi bajarish tartibi, usullari hamda vositalari, vazifani bajarish uchun kerak bo'ladigan ashyolar. "Me'moriy inshootning kompozision tahlili"ni bajarish. -5 ball</p>
	<p>Ichki fazoviy muhitni shakllantirish. Ochiq yoki yopiq fazoviy muhit to'g'risidagi tushuncha, «Tuynuklar yordamida yopik muxitni tashkil etish», «Ichki muhitning kompozision markazini ifoda etish» mavzularidagi klauzuralarni bajarish va yasash. -5 ball</p>
	<p>Ichki fazoviy muhitni shakllantirish. «Gorizontal yo'nalishda bog'langan ichki muhitlar kompozisiyasi», «Vertikal yo'nalishda bog'langan ichki muhitlar kompozisiyasi» mavzularidagi klauzuralarni bajarish va yasash-5 ball</p>
	<p>Ichki fazoviy muhitni shakllantirish. «To'siqlar vositasida tashkil etilgan ichki muhit» hamda «Murakkab ichki fazoviy muhit kompozisiyasi» mavzularidagi klauzuralarni bajarish va yasash-5 ball</p>
	<p>Ichki fazoviy muhit, hajmiy shakl va tevarak. Ichki tuzilishning shaklga bo'lgan munosabati, ichki tuzilishning tashqi shaklda aks etilishi, tevarak tushunchasi, tevarakning xillari: tabiiy va me'moriy tevaraklar, hajmiy va fazoviy tizimlarni tevarak bilan uyg'unlashtirish usullari, misollar. «Ichki muhitning tashqi shakldagi ifodasi» mavzusidagi klauzuralarni bajarish va maket yasash. «Tevarakniig tashqi shaklga ta'siri» mavzusidagi klauzuralarni bajarish va maket yasash. -5 ball. 75/15=5</p>

4 ball (yaxshi)	Jami to'plangan ball o'rtacha 60 bo'lgan holda $60/15=4$
3 ball (qoniqarli)	Jami to'plangan ball o'rtacha 45 bo'lgan holda $45/15=3$
2 ball (qoniqarsiz)	Jami to'plangan ball o'rtacha 30 bo'lgan holda $30/15=2$

Mustaqil ishga talabalar kompozisiya mavzulari bo'yicha maketlar yasaydilar.

№	Baho	Baholash mezon
1	5 ball(a'lo)	<ul style="list-style-type: none"> • Frontal kompozisiya maketi uchun – 5 ball; • Xajmiy fazoviy kompozisiya maketi uchun – 5 ball; • Ichki fazoviy muhitli kompozisiya maketi uchun – 5 ball; $15/3=5$
2	4 ball(yaxshi)	Jami to'plangan ball o'rtacha 12 bo'lgan holda $12/3=4$
3	3 ball(qoniqarli)	Jami to'plangan ball o'rtacha 9 bo'lgan holda $9/3=3$
4	2 ball(qoniqarsiz)	Jami to'plangan ball o'rtacha 6 bo'lgan holda $6/3=2$

Yuqoridagi ko'rsatilgan 5 vazifa va mustaqil ishning natijasi **OB1** nazoratiga kiritilgan.

$$\mathbf{OB1 = 5\ ball(5-vaz.) + 5\ ball\ (mus.\ ish) = 10/2 = 5\ ball}$$

VI vazifa: Binoning perspektivasini qurish. Vazifa sakkiz hafta davomida bajariladi. Uni baholashga-5 ball ajratilgan bo'lib, semestrda fanga ajratilgan soatga proporsional ravishda olingan.

№	Baho	Baholash mezon
1	5 ball (a'lo)	<ul style="list-style-type: none"> • Me'moriy obidaning perspektiv ko'rinishi millimetrovkada juda to'g'ri qurilgan –5ball; • Me'moriy obidaning perspektiv ko'rinishi planshetga juda yaxshi ko'chirilgan-5 ball; • Me'moriy obidaning perspektiv ko'rinishi joylashtirilgan va qalamda yaxshi grafikada bajarilgan – 5 ball; • Me'moriy obidaning perspektiv ko'rinishini suv-bo'yoqda juda yaxshi bo'yalgan – 5 ball; • Me'moriy obidaning perspektiv ko'rinishidagi soyalar suv-bo'yoqda juda yaxshi aks ettirilgan – 5 ball; $25/5=5$

2	4 ball (yaxshi)	Jami to'plangan ball o'rtacha 20 bo'lgan holda $20/5=4$
3	3 ball (qoniqarli)	Jami to'plangan ball o'rtacha 15 bo'lgan holda $15/5=3$
4	2 ball (qoniqarsiz)	Jami to'plangan ball o'rtacha 10 bo'lgan holda $10/5=2$

Mustaqil ishga talabalar grafik usulda rangli va oq-qorada anturaj va staffajlar chizadilar.

№	Baho	Baholash mezon
1	5 ball(a'lo)	<ul style="list-style-type: none"> • Grafik usulda anturaj chizish – 5 ball; • Grafik usulda staffaj chizish – 5 ball; $10/2=5$
2	4 ball(yaxshi)	Jami to'plangan ball o'rtacha 8 bo'lgan holda $8/2=4$
3	3 ball(qoniqarli)	Jami to'plangan ball o'rtacha 6 bo'lgan holda $6/2=3$
4	2 ball(qoniqarsiz)	Jami to'plangan ball o'rtacha 4bo'lgan holda $4/2=2$

Yuqoridagi ko'rsatilgan 6 vazifa va mustaqil ishning natijasi **OB2** nazoratiga kiritilgan.

$$\mathbf{OB2 = 5 ball(6-vaz.) + 5 ball (mus. ish) = 10/2 = 5 ball}$$

Oraliq nazoratning o'rtachasi quyidagicha hisoblanadi.

$$\mathbf{\sum oraliq.o'rt. = 5(OB1)+5(OB2) = 10/2=5}$$

Talaba oraliq nazoratidan o'rtacha kami bilan 3 ballni to'plagan holda YaN nazoratini topshirishga ruxsat beriladi. Yakuniy nazorat- 5 ballni tashkil etadi.

Yakuniy nazorat 2 bosqichdan iborat; avval talabalar geometrik shaklning perspektiv ko'rnishini A3 formatli qog'ozga quradilar, unga 5 ball ajratilgan.

№	Baho	Baholash mezon
1	5 ball(a'lo)	<ul style="list-style-type: none"> • Geometrik shaklning perspektiv ko'rnishi juda to'g'ri qurilgan –5ball; • Me'moriy obidaning perspektiv ko'rnishi joylashtirilgan va qalamda yaxshi grafikada bajarilgan – 5 ball; • Me'moriy obidaning perspektiv ko'rnishidagi soyalar suv-bo'yoqda juda yaxshi aks ettirilgan – 5 ball; $15/3=5$
2	4 ball(yaxshi)	Jami to'plangan ball o'rtacha 12 bo'lgan holda $12/3=4$
3	3 ball(qoniqarli)	Jami to'plangan ball o'rtacha 9 bo'lgan holda $9/3=3$

4	2 ball(qoniqarsiz)	Jami to'plangan ball o'rtacha 6 bo'lgan holda $6/3=2$
---	-----------------------	---

Bundan tashqari yakuniy nazoratda talabalarning semestr davomida olgan bilimlari yozma savol-javob o'tkazish orqali ham baholanadi va uni baholashga 5 ball ajratilgan.

Savolga berilgan javobning baholanishi	Baholash mezonlari
5 ball (a'lo)	Savolga berilgan javob aniq va to'g'ri. Har bir fikr misollar, mustaqil kuzatishlar bilan isbotlangan. Kurs bo'yicha asosiy tushunchalar mustahkam o'zlashtirilgan.
4 ball (yaxshi)	Savolga to'g'ri javob berilgan, misollar keltirilgan, lekin mustaqil fikr yuritilmagan. Kurs bo'yicha asosiy tushunchalar mustahkam o'zlashtirilgan.
3 ball (qoniqarli)	Savolga javob to'liq berilmagan, faqat darslar jarayonida keltirilgan misollar yozilgan, savol yuzasidan mustaqil fikr yuritilmagan. Kurs bo'yicha asosiy tushunchalar o'rta darajada o'zlashtirilgan.
2 ball (qoniqarsiz)	Savolga to'g'ri javob berilmagan, misollar keltirilmagan, mustaqil fikr yuritilmagan. Kurs bo'yicha asosiy tushunchalar mustahkam o'zlashtirilmagan.
1ball (qoniqarsiz)	Savolga umuman javob berilmagan, misollar keltirilmagan, mustaqil fikr yuritilmagan. Kurs bo'yicha asosiy tushunchalar mustahkam o'zlashtirilmagan.

Yakuniy nazoratning 2 bosqichida to'plangan jami ballar quyidagicha hisoblanadi; $5(\text{amal.})+5(\text{nazar.})=10/2=5$


Jami semestr bo'yicha oraliq hamda yakuniy nazoratlar yig'indisi-10 ball 2 ga bo'linib talabani to'plagan o'rtacha bali topiladi.

$$5(\text{OV})+5(\text{YaB})=10/2=5 \text{ ball}$$


Shrift kompozitsiyasini tuzish mavzusi bo'yicha kursatmalar.

SHRIFT KOMPOZITSIYASI

Geometrik asosga ega shriftlardan kompozitsiya yaratish




Bajardi: 101-D talabasi A. Yorqulov



SHRIFT KOMPOZITSIYASI

Geometrik asosga ega shriftlardan kompozitsiya yaratish



Bajardi: 101-D talabasi X. Nizomov

SHRIFT KOMPOZITSIYASI

Geometrik asosga ega shriftlardan kompozitsiya yaratish



Bajardi: 101-D talabasi Sh. Istamova




Inter'yer perspektivasini qurish mavzusi bo'yicha kursatmalar.

Perspektivani bajarishda boshlan'g'ich material bo'lib inshootning ortogonal proyeksiyalaridagi chizmalari: tarh, tarz va detallardan foydalaniladi. Ulardan asosiysi tarh grafik jihatdan juda aniq chizilgan bo'lishi kerak. Perspektiva qurish uchun har xil balandlikdan olingan bir necha tarh kerak bo'ladi. Obyektning tarzi tarh bajarilgan masshtabda chizilishi shartdir.

Tarh va tarz 24-format qog'ozning bir chekkasiga chizilgandan so'ng ko'rish nuqtasi tanlanadi va kartina tekisligi o'tkaziladi.

Ko'rish nuqtasi. Inshoot arxitekturasi xususiyatini perspektivada to'raligicha ochib berish ko'rish nuqtasini to'g'ri tanlab olishga bevosita bog'liqdir. Ko'rish nuqtasining obyektidan o'zoqligi shunday olinishi kerakki, obyektning ko'ra olish konusi 30-40 gradusni tashkil etsin (**1-rasm**). Ochiq maydonda joylashgan bino uchun ko'rish nuqtasini tanlash, ko'chadagi boshqa qurilishlar orasida joylashgan binoga nisbatan Kengroq imkoniyatlarga egadir.



1-rasm.


Tasvirning jozibaliligi ko'rish nuqtasining masofasiga, asosiy nurning joyiga, kartinaning joylashuviga bevosita bog'liqdir. Asosiy nur kartina tekisligiga perpendikulyar qilib olinadi. Ko'rish konusi 30-40 gradus bo'lishi uchun odam ko'rish nuqtasining obyektgacha bo'lgan masofasi ufq chizig'idan binoning eng baland nuqtasigacha bo'lgan masofadan 2,5-2 marta katta bo'lishi kerak.

Perspektiv ko'rinishning chizmada yaxshi chiqishi uchun asosiy nur obyektning burchagiga to'g'ri kelmasligi kerak, chunki bunda fokuslar bir masofaga ega bo'lib qoladi, bu esa chizmada ko'rimsiz kompozitsiyaga olib keladi. Asosiy nur bino burchagining bissetrisasi bo'ylab o'tmasligi kerak.

Ko'rish nuqtasini juda uzoq olganda ko'rish konusi 30 gradus dan kamaysa Perspektiva juda "tinch" bo'lib qoladi. Bu vaqtda fokuslar kartinadan chiqib Ketadi va Perspektiva qurish kiyinlashadi.

Ufq chizig'ini tanlash. Ufq chizig'i inshootning kompozision xususiyatlarini aniq ko'rsata olish shartiga, atrof-muhitga bog'liqligi va uning hajmiy-fazoviy tuzulishiga bog'liq ravishda tanlanadi.


Murakkab rejaviy yechimlarga ega bo'lgan katta ansambllar va shaharsozlik hududlarining perspektivasini qurishda ufq chizig'i "qush parvozi" balandligida, umumiy hollarda esa ufq chizig'i odam bo'yi balandligida (1,7 m) olinadi (**2-rasm**). Agarda bino ko'rish nuqtasidan balandlikda joylashgan bo'lsa, ufq chizig'i odam bo'yidan pastroqda olinadi.



2-rasm.

Interyer perspektivasini qurishda ufq chizig'i o'tirgan odamning ko'zi balandligida olinsa, ship yopilmasi (potolok) yetarli darajada aniq ko'rsatiladi va muhitning Kengligi va chuqurligi ochiladi. Lekin, ba'zi hollarda, ufq chizig'ini baland nuqtadan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Teatrlarda Tepa qismidagi ayvonlar balandligida olingan ufq chizig'i chiroyli interyerlarni yaratadi.

Ufq chizig'i aniqlangandan so'ng ko'rish nuqtasidan kartina tekisligigacha bo'lgan masofani aniqlash kerak. Bu masofa ufq chizig'idan binoning eng baland nuqtasigacha bo'lgan masofaning 2-2,5 ko'paytmasiga teng. Oddiyroq qilib aytganda, ko'ruvchi bino balandligidan 2-2,5 marta uzoqroq masofada tursa, biz istagan jozibali Perspektiva hosil bo'lishi mumkin (**3-rasm**).





FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

Asosiy adabiyotlar

1. Architecture. Form. Space. Order. Fransis D.R. Ching. New York John Wiley&Sons. Ins. 2014
2. Traditional Islamic Principles of Built Environment. Hisham Mortada. London-New York. 2013
3. O'ralov A.S., Po'latov X. va boshqalar. Arxitekturaviy loyihalash asoslari. Darslik. T.: 2010y.
4. Korjeva N.A. Arxitekturnaya kompozisiya. T.: 2010.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Asqarova D., Miryusupova M. Kichik me'moriy shakllar. T.: 2007y.
2. Po'latov X. va boshqalar. Arxitekturaviy loyihalash asoslari. T.: 2000y.
3. Po'latov X. va boshqalar. Arxitekturaviy kompozisiya asoslari. T.: 2000y.
4. O'ralov A.S. Rahimov A.Q, Saidova B.A. Arxitekturaviy loyihalash va kompozisiya asoslari. Samarqand: 2005y.
5. Po'latov X. va boshqalar. Arxitekturaviy kompozisiya asoslari. Darslik T.: 2005y.

Internet saytlari

1. www.centrasia.uz
2. www.arx.novosibdom.ru
3. www.zarnews.uz
4. www.ZiyonET.uz